



TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

2013-yil. 2-son.



Ortiqali Qozoqov. Tog'da bahor. 2003.

Ushbu sonda:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nima?

3- bet

Yangi rukn:
**LET'S LEARN
ENGLISH**

16- bet

Nutq odobi inson
axloqini belgilovchi
asosiy mezondir

8- bet

Turkiy xalqlarning
sevimli shoiri

27- bet

«Gar quyosh
vaslin tilarsen...»

39- bet

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

1991-yildan chiqa boshlagan

O'zbekiston Matbuot va axborot
agentligida 2006-yil 22-dekabrda
0055-raqam bilan ro'yxatga olingan



2013-yil. 2-son

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK
JURNALI

Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

Bo'lim muharrirlari:

Shahnoza JO'RAYEVA

(Til o'qitish metodikasi bo'limi)

Dono XO'JAYEVA

(Adabiyot o'qitish metodikasi bo'limi)

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor DONIYOROV

Shahnoza JO'RAYEVA

Islom ZOKIROV

Ulug'bek INOYATOV

G'ulom MIRZAYEV

Nizomiddin MAHMUDOV

Abduhamid MUXTOROV

(Mas'ul kotib)

Nadejda NAM

(«Исповедание языка и литературы»

jurnali bo'lim muharriri)

Sirojiddin SAYYID

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV

Ergesh ABDUVALITOV

Manzura DADAXO'JAYEVA

Lutfullo JO'RAYEV

Ehson TURDIQULOV

Valijon QODIROV

Sahifalovchi:

Husan SAFARALIYEV

Matn teruvchi:

Nodira MIRZAAHMEDOVA

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat muqta nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan qo'lyozmalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 18.02.2013-yilda topshirildi. O'tset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84^{1/2}. Shartli bosma tabog'i 6.0. «Times» garnituras. 10, 11 kegl. «SANO-STANDART» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Shiroq ko'chasi. 100.

Buyurtma №195. Adadi 14890 nusxa.

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Lutfullo Jo'rayev. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nima? 3

Gulsara Ziyodullayeva. Nutq odobi inson axloqini belgilovchi
asosiy mezonidir 8

DARS – MUQADDAS

Jo'rabek Sherov. Unlilar talaffuzi va imlosi 11

Gulnora Allanazarova. «Tutuq belgisi («'»)ning ishlatilishi»
mavzusini o'rganish tajribasidan 14

YANGI RUKN: LET'S LEARN ENGLISH

S. Xan, L. Jo'rayev. Keling, ingliz tilini o'rganamiz! 16

ILG'OR PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Muhabbat Maxsudova. Ona tili darslarida tibbiyotga oid o'git, atama
va tibbiy matnlardan foydalanish 21

Nigora Umarova. «Maqollar» mavzusini o'tishda internetdan foydalanish 25

ADABIY TAQVIM

Ergash Ochilov. Turkiy xalqlarning sevimli shoiri 27

ARUZ VAZNI SABOQLARI

Valijon Qodirov. Aruz vaznini o'qitish tajribasidan 32

Laylo Sharipova. Bo'in va hijo 34

TADQIQOTLAR

Ergash Umarov. Turkiyshunoslikdagi bir xato xususida 36

Ibrohim Haqqul. «Gar quyosh vaslin tilarsen...» 39

Munisjon Hakimov. Jamol Kamol she'riyatida birdamlik g'oyalari 41

G'ulom Botirov. Iqtisodiy terminlarning
o'ziga xos xususiyatlari 43

AMALIY FOYDALANISH UCHUN

Muhayyo Ahmedova. «Navro'z muborakdir senga!»
(Tadbir ssenariysi) 45

ETIMOLOGIYA

Madina Muhammadaliyeva. «Tijoratchi» so'zi etimologiyasi 48

«Til va adabiyot ta'limi» jurnali O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan tasdiqlangan ro'yxatiga ko'ra,
Pedagogika fani bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar
chop etilishi lozim bo'lgan ilmiy jurnaldir.

Tahririyat manzili:

100129. Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Telefon: (8-371) 244-04-18.

244-04-15. E-mail: til@sarkor.uz Veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

JAMOL KAMOL SHE'RIYATIDA BIRDAMLIK G'OYALARI

Annotatsiya. Birdamlik (толерантность) g'oyalari qadimdan badiiy adabiyotda o'z ifodasini topib kelgan. Chunki adabiyotning bosh maqsadi ezgulikni ulug'lashdir. Bu an'analar bugungi o'zbek adabiyotida ham o'zining yangicha ifoda va talqinlariga ega. Maqolada ana shu an'analarning bugungi ifodasi Jamol Kamol ijodi misolida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: birdamlik, adabiyotning maqsadi, an'ana, she'r, maqol, hurlik, g'oya, muxammas, leytmotiv, milliy g'urur, takror (takrir), g'azal, illat, ruboiy.

Qadimdan to bugunga qadar Sharq adabiyotida ezgulik, totuvlik, do'stlik kabi tushunchalar tarannum etiladi. Negaki, bular adabiyotning bosh maqsadlaridan biridir. Jumladan, «Devoni lug'otit-turk»da «qo'ni-qo'shnilarga yaxshilik qil, ularni hurmatla»¹ mazmunidagi quyidagi parcha uchraydi:

*Qo'ni-qo'shni qarindosh,
Ko'rsin sendan yaxshilik.
Ne-ne sovg'a qilishga,
Yaxshirog'in qil ortiq.*²

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham *Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig' ish*³, – deya do'stlikni, birdamlikni ulug'laydi.

O'zining qadimiy ildizlariga ega bu fazilatlar bugungi she'riyatimizda ham o'zining yangicha ifodalarini topmoqda. O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol ijodi fikrimizning dalili bo'la oladi. Uning qalamiga mansub «**Bu yurtning**» she'rida shunday misralar uchraydi:

*Jahl kelsa, aql qochgay. demishlar
barcha donolar,
Jahlningmas, aqlning ildizi – birlik, ahillikdir...*⁴

«Jahl kelsa, aql qochgay» maqoli orqali shoir o'z fikriga asos topadi. Ya'ni «birlik, ahillik» bo'lishi uchun aqlga tayanmoq lozim. She'rda jahlning oqibatlarini sifatida tarixdan misollar keltiriladi: Turon, Urganch, Buxoroyu Qo'qonlarning boshiga tushgan mudhish kunlarning barchasi parokandalikdan! Bu ayanchli holatga yuz tutmaslik uchun Jamol Kamol shunday yozadi:

Annotation: Since ancient times the ideas of unanimity are reflected in literature because the main purpose of literature is to honour good deeds. These traditions are still keeping their value nowadays. In this article such traditions are explained in the example of creative works of Jamol Kamol.

Key words: unanimity, aim of literature, traditions, poem, proverb, idea, muhammas, leitmotiv, national pride, iteration, ghazal, flaw, rubai.

*Jamol, kim yurt talashmoq,
yurt bo'lishmoqni shior etsa,
Degilkim, bu qabohatdir, kasofatdir,
razillikdir...*

Chindan ham tarix Turonning bo'linishdan emas, birdamlikdan ma'lum va mashhur bo'lganligini tasdiqlaydi.

Birdamlik dunyoda turli g'oyaviy taloto'plar avj olgan bugungi tahlikali zamonda, ayniqsa juda muhim. Vatanimiz qo'lga kiritgan hurlikni ko'z qorachig'idek asrash lozim. Bu kabi g'oyalarni ifodalashda Jamol Kamol muxammas janridan ham unumli foydalanadi:

*Xalqimizga berdi bu hurlikni
Ollohi Karim,
Qo'llamas hech zulm ila zo'rlikni
Ollohi Karim,
Hech qachon ko'p ko'rmasin birlikni
Ollohi Karim,
To jahonda bu Vatanning erk-u
istiqloli bor,
Xalqini olam sharaflar, baxt ila
iqboli bor.
(224-b.)*

Shoir lirik qahramoni yurtining istiqloлга erishganidan masrur. U Ollohdan o'z xalqiga birlikni ko'p ko'rmasligini tilaydi.

Birdamlik, do'stlik g'oyalari tarannum etilishi jihatidan Jamol Kamolning «**Do'stlar, uyushmoq onidir**» muxammasi ham alohida ahamiyatga molik. Besh banddan iborat bu muxammas qalamkashlarga xitob tarzida yangraydi, har

bandning oxirgi ikki misrasi esa she'ning leytmotivini belgilab beradi:

*Bizga chin meros buyuklarning adab
maydonidir,
Parchalanmoq paytimas, do'stlar,
uyushmoq onidir...*
(226–227-b.)

Shoir muxammasni Temurbek, Ulug'bek, Navoiylarni eslab milliy g'ururni yodga solish bilan boshlaydi:

*Boshimiz uzra Ulug'bekning ulug'
osmonidir,
Poyimizda mard Temurbekning aziz
Turonidir,
Qalbimizda Mir Alisherning
muborak qonidir...* (226-b.)

Birinchi misrada qo'llangan «Ulug'bek» va «ulug'» so'zlaridagi takror kitobxon diqqatini jalb qilib oladi. Muxammasning 2-, 3-bandlarida shoir tarixda ajdodlarimiz yo'l qo'ygan xato – bir-birlari bilan yovlashganliklari, mansab talashganliklarini eslash bilan davom ettiradi. Nihoyat, she'ning oxirida xulosa shunday:

*Bir qatorda saf chekib, karvon
bo'laylik barchamiz,
Boshqalardek bir tan-u bir jon
bo'laylik barchamiz,
Shu Vatanning dardiga darmon
bo'laylik barchamiz...* (227-b.)

Chindan ham, qalam ahli millat ma'naviyatining posbonlaridir. Agar ular bir tanu-jon bo'lib harakat qilsa, xalq ularga ergashishi tayin. Ya'ni «Vatanning dardiga darmon bo'lish»dek sharaflilikda hamma birgalikda harakat qiladi.

Jamol Kamol she'riyatidan ijtimoiy-falsafiy fikrlar keng o'rin olgan. Uning lirik qahramoni o'zini jamiyatdan ayri tasavvur eta olmaydi, o'z baxtini halol, adolatli, bir yoqadan bosh chiqargan jamiyatda ko'radi.

«Shoirning (Jamol Kamolning – M.H.) oshiqona g'azallari xususida, birov u der, birov – bu. Biroq uning ijtimoiy, falsafiy mazmundagi g'azallariga fikri ochiq o'quvchi sira-sira yuza qarolmaydi»⁵, – deydi Ibrohim Haqqul. Chunki uning bunday mazmundagi g'azallarida insoniy-

likning oliy fazilatlari: adolat, halollik, mehr-u shafqat, shuningdek, birdamlik kabi g'oyalar ulug'lanadi.

*Jahonda kimki insondir,
Yig'ildi, anjuman bo'ldi,
Ko'ring, bu noshukurlar
Anjuman qadrini bilmaslar...* (176-b.)

Shoirning nafaqat g'azallarida, balki ruboiylarida ham mardlik, fidoiylik, birdamlik g'oyalari kuylanadiki, janr tabiatidagi ijtimoiy falsafiylik xususiyati o'zini to'la namoyon eta olgan. Uning she'riyati insoniyat tafakkurining ming yillar mobaynida to'plagan tajribalari-yu an'alariga tayanadi. Jumladan, hazrat Navoiyda o'qiymiz:

*Ariqlarki, ul bahrdin ayrilur,
Biliklik alarning suyin ham bilur,
Chu birdur suv daryo bila nahr aro,
Emas ta'mida hojati mojaro.*

Ya'ni dengiz bilan bir bo'lgan daryo suvining ta'mida farq bo'lmaganidek, bir yoqadan bosh chiqaruvchi xalq vakillarida ham tenglik hukmronidir. Jamol Kamolga ko'ra:

*Himmatda ziyoda bo'l, sira oz bo'lma,
Har kimsa chaluvchi, qo'lma-qo'l soz bo'lma.
El-yurtga fidoyi bo'l va mardona yasha,
G'iybatchi, ayirmachi, guruhboz bo'lma...*
(234-b.)

El-yurtga fidoyi kishi guruhboz, ayirmachi emas, balki uni birlashtiruvchi, shon-shuhratini ko'klarga ko'taruvchi bo'lmog'i lozim. Ana shunda bu elni va uning vakillarini «har kimsa chaluvchi, qo'lma-qo'l soz» qila olmaydi.

Umuman, Jamol Kamol birdamlik g'oyalarini kuylar ekan, mumtoz she'riyat unsurlariga sodiq qoladi, g'azal, muxammas, ruboiy kabi mumtoz janrlarning janriy imkoniyatlaridan kelib chiqib ijod qiladi. Shuning bilan birga, bunday g'oyalarni bugungi kun nuqtai nazaridan ifoda etadi. Shoir she'riyatida birdamlik umuminsoniy g'oya sifatida muhim ijtimoiy-falsafiy ahamiyat kasb etadi.

Munisjon HAKIMOV,

O'zbekiston Pespublikasi Fanlar akademiyasi
Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot
institutining ilmiy xodimi

¹M.Koshg'ariy. Devoni lug'otit-turk. 3 jildlik. I jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. T., 1960. 138-bet.

²She'riy parchani hozirgi o'zbek adabiy tiliga N. Rahmonov o'g'irgan. Qarang: Qadimiy hikmatlar. T., 1987. 64-bet.

³A.Navoiy. Asarlar. 10 jildlik. I jild. T., 2011. 281-bet.

⁴J.Kamol. Yana ko'nglimda ul oy. T., 2009.

⁵I.Haqqul. She'riyat dard va umid demak // J.Kamol. Saylanma. I jild. T., 2007. 10-bet.

⁶A.Navoiy. Asarlar. 10 jildlik. IX jild. T., 2011. 461-bet.